

“GO‘RO‘G‘LI” TURKUMINING TARBIYAVIY SALOHIYATINI XORIJIY TAJRIBA BILAN QIYOSLASH: TURKIY XALQLAR EPIK MEROSI MISOLIDA

Teshaboyeva Zumrad Voxidjonovna

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
mustaqil izlanuvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

zumradteshaboyeva@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0004-5769-707X>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22657230>

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Go‘ro‘g‘li” turkumining tarbiyaviy salohiyati turkiy xalqlar epik merosi doirasida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda turkmanlarning “Gyorogly”, qirg‘izlarning “Manas”, qozoq xalq eposlari, ozarbayjon-qozoq-turk xalqlarining “Dede Qo‘rqut” merosi hamda qoraqalpoq xalqining “Qirq qiz” eposidan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash vositasi sifatida foydalanish tajribasi o‘rganiladi. Qiyosiy tahlil asosida epik meros tarkibida mardlik, vatanparvarlik, adolat, do‘stlik, birdamlik, insonparvarlik, fuqarolik burchi va milliy o‘zlikni anglash kabi qadriyatlarning umumiy tizimi mavjudligi aniqlanadi. Shuningdek, turli mamlakatlarda epik merosni saqlash va avloddan-avlodga uzatishning ustoz-shogirdlik, maktab ta’limi, maxsus o‘quv fanlari, to‘garaklar, oliy ta’lim kurslari, ilmiy-tajriba ishlari, madaniy markazlar va multimedia vositalari orqali amalga oshirilishi tahlil etiladi. Qirg‘iziston tajribasidagi epik merosning davlat ta’lim siyosatiga integratsiyasi, Turkmanistondagi ko‘p qatlamli institutsional tizim, Qozog‘istondagi pedagogik samaradorlikni empirik usullar asosida baholash hamda umumturkiy madaniy merosni xalqaro hamkorlik doirasida muhofaza qilish tajribalari umumlashtiriladi. Tadqiqot natijasida mazkur tajribalardan “Go‘ro‘g‘li” turkumining O‘zbekiston ta’lim va tarbiya tizimidagi pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, uning asosida

tajriba-sinov metodikasini ishlab chiqish hamda epik merosni zamonaviy ta'lim vositalari bilan integratsiyalashda foydalanish mumkinligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: “Go‘ro‘g‘li” turkumi, turkiy xalqlar epik merosi, tarbiyaviy salohiyat, etnopedagogika, qiyosiy tahlil, “Gyorogly”, “Manas” eposi, “Dede Qo‘rqut”, “Qirq qiz” eposi, milliy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, ustoz-shogird an’anasi, institutsionallashuv, epik meros, pedagogik tajriba.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ воспитательного потенциала эпического цикла «Гёроглы» в контексте эпического наследия тюркских народов. В исследовании рассматривается опыт использования туркменского «Гёроглы», кыргызского эпоса «Манас», казахских эпических произведений, наследия «Деде Коркут», представленного Азербайджаном, Казахстаном и Турцией, а также каракалпакского эпоса «Сорок девушек» в качестве средства духовно-нравственного воспитания подрастающего поколения. На основе сравнительного анализа выявлено наличие в эпическом наследии общей системы ценностей, включающей мужество, патриотизм, справедливость, дружбу, солидарность, гуманизм, гражданский долг и осознание национальной идентичности. Анализируется также практика сохранения и межпоколенческой передачи эпического наследия в различных странах посредством института наставничества, школьного образования, специальных учебных дисциплин, кружков, курсов в системе высшего образования, научно-экспериментальной работы, культурных центров и мультимедийных средств. Обобщается опыт интеграции эпического наследия в государственную образовательную политику Кыргызстана, многоуровневой институциональной поддержки эпического искусства в Туркменистане, эмпирической оценки его педагогической эффективности в Казахстане, а также международного сотрудничества в сфере охраны и популяризации общего тюркского культурного наследия. В результате исследования обосновывается возможность использования изученного опыта для

расширения педагогического потенциала цикла «Гёроглы» в системе образования и воспитания Узбекистана, разработки на его основе экспериментальной методики и интеграции эпического наследия с современными образовательными технологиями.

Ключевые слова: цикл «Гёроглы», эпическое наследие тюркских народов, воспитательный потенциал, этнопедагогика, сравнительный анализ, «Гёроглы», эпос «Манас», «Деде Коркут», эпос «Сорок девушек», национальные ценности, духовно-нравственное воспитание, традиция наставничества, институционализация, эпическое наследие, педагогический эксперимент.

Abstract: This article provides a comparative analysis of the educational potential of the “Gorogly” epic cycle within the broader epic heritage of Turkic peoples. The study examines the experience of using the Turkmen “Gorogly,” the Kyrgyz epic “Manas,” Kazakh epic works, the “Dede Korkut” heritage jointly represented by Azerbaijan, Kazakhstan, and Türkiye, as well as the Karakalpak epic “Forty Girls” as means of spiritual and moral education of the younger generation. The comparative analysis reveals a common system of values embedded in the epic heritage, including courage, patriotism, justice, friendship, solidarity, humanism, civic responsibility, and awareness of national identity. The study also analyzes practices of preserving and transmitting epic heritage across generations through mentorship traditions, school education, specialized academic subjects, extracurricular clubs, higher education courses, research and experimental activities, cultural centers, and multimedia tools. Particular attention is given to the integration of epic heritage into state educational policy in Kyrgyzstan, the multilayered institutional support for epic traditions in Turkmenistan, the empirical assessment of their educational effectiveness in Kazakhstan, and international cooperation in preserving and promoting the shared cultural heritage of Turkic peoples. The findings substantiate the possibility of applying these experiences to expand the pedagogical potential of the “Gorogly” epic cycle within Uzbekistan’s education and

upbringing system, develop an experimental educational methodology based on its content, and integrate epic heritage with contemporary educational technologies.

Keywords: “Gorogly” epic cycle, epic heritage of Turkic peoples, educational potential, ethnopedagogy, comparative analysis, “Gorogly,” “Manas” epic, “Dede Korkut,” “Forty Girls” epic, national values, spiritual and moral education, mentorship tradition, institutionalization, epic heritage, educational experiment.

“Go‘ro‘g‘li” turkumi o‘zbek xalqigagina xos emas u turkman, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq kabi qardosh xalqlarda ham, turli nomlar ostida (Gyorogly, Kyorog‘lu, Qorogly), keng tarqalgan umumturkiy merosdir. Bu holatning xalqaro miqyosda rasmiy e‘tirof etilgani alohida ahamiyatga ega: 2015 yilda YUNESKOning Insoniyatning noaddiy madaniy merosi ro‘yxatiga turkman “Gyorogly” dostonchilik san‘ati kiritilgan [1], 2018 yilda esa Ozarbayjon, Qozog‘iston va Turkiya tomonidan birgalikda taqdim etilgan “Dede Qo‘rqut” merosi ro‘yxatiga olingan [2]. Mazkur tezisning maqsadi – qardosh xalqlarning epik merosdan yosh avlodni tarbiyalashda foydalanish borasidagi institusional tajribasini qiyosiy tahlil qilish va shu asosda “Go‘ro‘g‘li” turkumining O‘zbekistondagi mumkin bo‘lgan maqomini aniqlashga oid xulosalar chiqarishdan iborat.

Turkman tajribasi dissertatsiyamiz uchun eng bevosita qiyosiy ahamiyatga ega, chunki “Gyorogly” aynan o‘sha doston turkumining turkman milliy an‘anadagi nomidir. YUNESKOning rasmiy ta‘rifida dostonchilik an‘anasining tarbiyaviy funksiyasi aniq ko‘rsatilgan: “Uning uzatilishi bolalar tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi, ularga o‘z madaniy o‘zligini yaxshiroq anglashga yordam beradi” [1], shuningdek doston tarbiyalaydigan aniq qadriyatlar ham nomma-nom sanab o‘tilgan: “mardlik, rostgo‘ylik, do‘stlik, bag‘rikenglik va adolat kabi qadriyatlarni targ‘ib qiladi” [1]. Turkmaniston Fanlar akademiyasi xodimi Geldimyrat Muhammedov esa dostonchilik an‘anasining institusional-pedagogik tuzilishini batafsil tavsiflaydi: “Dostonlar turkmanlar uchun yoshlarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi”, xususan “mehnatsevarlik, fikrlash aniqligi, o‘z tarixi, madaniyati,

vatanini sevish” kabi fazilatlarini shakllantiradi [3, 226-b.], shuningdek xulq-atvor fazilatlarining to'liq ro'yxatini keltiradi: “insoniylik, donolik, saxiylik, mehmondo'stlik, bag'rikenglik, rahbarlik, qo'rqmaslik” [3, 226-b.].

Turkman tajribasining eng qimmatli jihati dostonchilikning o'zi “tarbiya” jarayoni orqali uzatilishining aniq tavsiflanganidir. Muhammedov yozadi: “Tajribali Dessanchi baxshi... ustoz eng yosh dostonchi o'rganuvchilarni tanlaydi va ularga o'rgatadi” [3, 225-b.], shogirdlar esa “uzoq vaqt (5–10 yil) ustoz rahbarligi ostida” ta'lim oladilar [3, 225-b.]. Bu an'ana noinstitutsonal (oilaviy-ustozchilik) shakldan tashqari, institusional darajada ham qo'llab-quvvatlanadi: “Turkman milliy konservatoriyasi, Davlat madaniyat va san'at maktabi hamda veloyatlardagi ixtisoslashgan musiqa maktablari” faoliyat yuritadi [3, 225-b.], ta'lim jarayonining yakuniy bosqichi esa ustoz tomonidan shogirdning jamoat oldida imtihon qilinishi va fотиha berilishi bilan yakunlanadi [3, 225-b.]. Institutsonal ta'minot esa nafaqat ta'lim muassasalari, balki “har bir viloyatda mavjud Baxshilar uylari”, oylik tajriba almashish yig'ilishlari, audio-video yozuv studiyalari orqali ham amalga oshiriladi [3, 227-b.]. Mazkur ko'p qatlamli institusional tizim (maktab – konservatoriya – baxshilar uyi – OAV) “Go'ro'g'li” turkumini O'zbekistonda targ'ib qilishning mumkin bo'lgan institusional tayanchlarini ko'rsatib beradi.

Ustoz-shogirdlik institutining uzviyligi (avlodlararo mutasillik) masalasiga ham Muhammedov alohida e'tibor qaratadi: an'anaviy ta'lim tizimi “yosh va katta avlod o'rtasida doimiy aloqani ta'minlab, ko'nikmalardagi uzilishning oldini oladi” [3, 225-b.]. Bundan tashqari, ustoz shogirdga bilimni faqat og'zaki emas, balki yozma va texnik vositalar orqali ham uzatadi: “Ustoz o'z bilimini shogirdlarga ta'lim berish hamda ularni turli formatdagi (bosma nashrlar, audio va video yozuvlar) hujjatlashtirilgan manbalarga yo'llash orqali topshiradi” [3, 225-b.]. Mazkur dalil muhim metodologik ahamiyatga ega: an'anaviy og'zaki pedagogika zamonaviy axborot vositalari (yozma matn, audio, video) bilan raqobatlashmaydi, aksincha ularni o'z tizimiga integratsiyalaydi. Bu yondashuv “Go'ro'g'li” turkumini raqamli va multimedia vositalari orqali (masalan, audio-kitoblar, video-darslar

shaklida) yosh avlodga yetkazish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda bevosita foydalanilishi mumkin.

Qirg'iziston tajribasi umumturkiy epik merosni davlat ta'lim siyosatiga integratsiyalashning eng rivojlangan namunasidir. Qirg'iz tadqiqotchisi K.M.Jumakadyrova "Manas" eposining axloqiy-tarbiyaviy mazmunini ochib beradi: epos "jeti osuyat" ("yetti vasiyat") tizimi asosida "el-yurtning ajralmas birligi", "xalqlararo totuvlik, do'stlik va hamkorlik", "milliy or-nomus va fuqarolik burchi", "tinib-tinchimas mehnat va ilm-ma'rifat", "gumanizm, oliyjanoblik, kechirimlilik", "tabiat bilan uyg'un munosabat" va "davlatchilikni mustahkamlash" kabi qadriyatlarni tarbiyalaydi [4]. Diqqatga sazovorki, mazkur yetti vasiyatning deyarli barchasi "Go'ro'g'li" turkumi uchun aniqlangan axloqiy sifatlar tizimi bilan deyarli aynan mos keladi. Bu moslik ikkala epik an'ananing umumiy ma'naviy-axloqiy asosini yana bir bor tasdiqlaydi.

Jumakadyrovaning nazariy tavsiyalari Qirg'izistonda amalda davlat siyosati darajasida tatbiq etilgan. Jurnalist Gulnara Alıybayevaning ma'lumotiga ko'ra, Qirg'iziston Prezidentining milliy qadriyatlarni saqlash to'g'risidagi farmoni asosida "Manas", "Semetey", "Seytek" dostonlarini o'qitish va targ'ib qilish bo'yicha alohida qaror qabul qilingan [5], amaliyotda esa 8-sinfda "Manastanuu" (Manasshunolik) mustaqil o'quv fani sifatida o'qitiladi, quyi sinflarda esa epos qirg'iz tili darslari tarkibida ertak shaklida o'rganiladi [5], shuningdek maxsus "Seytek" milliy markazi va maktablardagi "Manas", "Semetey", "Seytek" va "Aychyrok" to'garaklari (masalan, Chuy viloyati maktablarida) faoliyat yuritadi [6], so'nggi 11 yil davomida "Manas" intellektual tanlovlarida 100 000 dan ortiq o'quvchi (yiliga o'rtacha 12 000) ishtirok etgan [5]. Shu bilan birga, muallif muhim muammoni ham ochiq ko'rsatadi: "Manastanuu" fani bo'yicha alohida mutaxassis-o'qituvchilar yo'q, fan qirg'iz tili va tarix o'qituvchilari tomonidan qo'shimcha yuk sifatida olib boriladi [5]. Mazkur muammo ogohlantiruvchi ahamiyatga ega: "Go'ro'g'li" turkumini maktab ta'limiga joriy etish taklif qilinganda, shunga o'xshash kadrlar muammosining oldini olish choralari ham ko'zda tutilishi lozim.

Qozog'iston tajribasi esa epik merosdan tarbiya vositasi sifatida foydalanishning samaradorligini empirik, tajriba-sinov usuli bilan o'lchashga uringan noyob namunadir. Əl-Farabi nomidagi Qozog'iston milliy universiteti tadqiqotchilari (A.Toybazar va boshqalar) tomonidan 2025 yilda chop etilgan maqolada "Almatidagi universitetning filologiya fakulteti talabalari uchun qozoq eposlari va mifopoetik obrazlar asosida o'quv mashg'ulotlari" o'tkazilgani bayon etiladi [7, 154-b.], tadqiqot kvazitajribaviy (pretest–posttest) metodologiya asosida qurilgan bo'lib, natijada "talabalarning milliy qadriyatlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarida statistik jihatdan ahamiyatli yaxshilanish" qayd etilgan [7, 154-b.]. Mualliflar "madaniy jihatdan boy mazmun, jumladan qozoq eposlari, filologiya fakultetlari o'quv dasturlariga kiritilishi kerak" deb hisoblaydilar [7, 175-b.]. Ushbu tajriba muhim metodologik ko'rsatma beradi: epik merosdan tarbiya vositasi sifatida foydalanishning pedagogik samaradorligini nafaqat nazariy, balki ilmiy-empirik usullar bilan ham isbotlash mumkin va zarur.

Uch davlat (Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkiya) tomonidan birgalikda taqdim etilgan "Dede Qo'rqut" merosi alohida qiyosiy ahamiyatga ega – u yakka millat emas, balki bir necha turkiy xalq tomonidan umumiy madaniy-tarbiyaviy boylilik sifatida tan olinganini ko'rsatadi. Rasmiy hujjatda uning mazmuni "mardlik, muloqot, jismoniy va ma'naviy sog'lomlik hamda birdamlik, shuningdek tabiatga hurmat kabi ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlar"ni qamrab olishi bilan ta'riflanadi [2], Dede Qo'rqut obrazining o'zi esa "dostonchilar donosi" sifatida tavsiflanadi [2], bu esa "Go'ro'g'li" turkumidagi Soqibulbul obrazining ("epik shoir – ma'naviy rahbar" arxetipi) umumturkiy parallelini yana bir bor tasdiqlaydi. Meros avlodlararo uzatilish mexanizmi ham umumiy: u "og'zaki ifodalar, ijrochilik san'ati, madaniy kodlar va musiqiy asarlar orqali avloddan-avlodga bo'lishiladi va uzatiladi" hamda "jamiyatda chuqur ildiz otgan, avlodlar o'rtasida bog'lovchi ip vazifasini o'taydi" [2]. Uch davlatning birgalikdagi murojaati shuni ko'rsatadiki, epik merosni davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlash ko'p hollarda xalqaro hamkorlik, milliy chegaralardan yuqori turadigan madaniy diplomatiya shaklida amalga oshiriladi. Bu

tajriba “Go‘ro‘g‘li” turkumi misolida ham (O‘zbekiston, Turkmaniston va boshqa qardosh davlatlar o‘rtasida) kelajakda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishdir.

O‘zbekiston tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasining “Qirq qiz” eposi esa alohida qiziqarli qiyosiy namuna beradi. U bir tomondan “Go‘ro‘g‘li” bilan bir madaniy-davlat makonida mavjud, ikkinchi tomondan o‘ziga xos, mustaqil qahramonlik an‘anasini tashkil etadi. Epos 1940 yilda To‘rtko‘l tumanida xalq ijrochisi Qurbonboyev Tojiboyevdan yozib olingan [8], uning axloqiy-g‘oyaviy mazmuni esa “vatanparvarlik, adolat, xalqlar do‘stligi g‘oyalarini” ifodalaydi [8], buni isbotlovchi syujet yakunida qirq qiz-jangchi “mamlakat boshqaruvini Xorazmning to‘rt xalqi (qoraqalpoq, o‘zbek, turkman, qozoq) vakillari qo‘liga topshiradi” [8]. Diqqatga sazovorki, manbada eposning xalqaro badiiy-adabiy tan olinishi ham qayd etilgan: fransuz yozuvchisi Lui Aragon epos qahramonlarini mashhur “Roland haqida qo‘shiq” qahramonlari bilan qiyoslagan [8] – bu qiyos turkiy xalqlar qahramonlik eposining umumbashariy qahramonlik-axloqiy qadriyatlar tizimiga mansubligini namoyon etadi.

“Qirq qiz” eposining tarbiyaviy salohiyati so‘nggi yillardagi mustaqil ilmiy tadqiqotda ham alohida o‘rganilgan. Nukus davlat pedagogika instituti tadqiqotchilari M.Kurbaniyazov va L.Saparova 2026 yilda chop etilgan maqolasida qoraqalpoq xalq eposlari “Alpomish”, “Yedige” va “Qirq qiz”ning pedagogik funksiyasini aniq ta’riflaydilar: bu eposlar “yosh avlodda vatanparvarlik, ruhiy bardoshlilik, axloqiy butunlik va fuqarolik burchini singdirish uchun yaratilgan” [9, 602-b.]. Dissertatsiyamiz uchun metodologik jihatdan eng qimmatlisi mualliflarning eposlarga bergan umumiy ta’rifidir: ular “murakkab etnopedagogik vositalar bo‘lib, faol kognitiv va xulq-atvor ko‘lamini ta’minlaydi” hamda “yoshlarni ijtimoiylashtirishning to‘laqonli, narrativ asosidagi tarbiya tizimi” vazifasini bajaradi [9, 603-b.]. Ushbu ta’rif “etnopedagogik vosita” va “narrativ tarbiya tizimi” tushunchalari “pedagogik mexanizm” tushunchasining qardosh ilmiy muhitda mustaqil ravishda, deyarli bir xil mazmunda shakllanganini ko‘rsatadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan olti tajriba (turkman, qirg'iz, qozoq, ozarbayjon-qozoq-turk, qoraqalpoq) orasida bir qator barqaror umumiyliklar kuzatiladi. Birinchidan, barcha an'analarda ham epos tarbiyalaydigan qadriyatlar tizimi deyarli bir xil: mardlik/jasurlik, adolat, do'stlik/birdamlik, insoniylik/mehribonlik, vatanparvarlik, tabiatga hurmat. Ikkinchidan, barcha an'analarda "uzatilish mexanizmi" alohida ahamiyat kasb etadi turkman va dede-qo'rqut an'alarida bu ustoz-shogirdlik, qirg'iz an'anasida oila-bog'cha-maktab uzviy zanjiri, qozoq tajribasida esa oliy ta'limdagi maxsus o'quv kurslari orqali amalga oshiriladi. Uchinchidan esa, institusionallashuv darajasida kyeskin farq kuzatiladi: Qirg'izistonda "Manas" davlat siyosati darajasida (prezident farmoni, maktab dasturidagi mustaqil fan, milliy markaz) qo'llab-quvvatlansa, Turkmanistonda dostonchilik an'ansi davlat konservatoriyasi va baxshilar uylari orqali institusionallashgan, Qozog'istonda esa epik meros oliy ta'limda ilmiy-empirik usulda sinalmogda.

O'zbekistonda esa, dastlabki tahlil ko'rsatishicha, "Go'ro'g'li" turkumi na umumpedagogika adabiyotida, na maktab dasturlarida "Manas" yoki "Gyorogly" darajasida tizimli, institusional o'rin egallagan emas vaholanki, qoraqalpoq eposlari misolida ko'rsatilganidek, aynan O'zbekiston tarkibidagi mintaqalarda ham bunday ilmiy-pedagogik qiziqish allaqachon shakllanmogda. Mazkur qiyos amaliy ahamiyatga ega aniq xulosaga olib keladi: "Go'ro'g'li" turkumini maktab va oliy ta'lim tizimiga pedagogik jihatdan asoslangan holda, shu jumladan empirik sinov orqali, joriy etish qardosh xalqlar tajribasida allaqachon boshlangan, samarali natija bergan yo'nalishdir. Bunda, ayniqsa, Qirg'iziston tajribasida kuzatilgan kadrlar muammosini oldindan inobatga olish, Qozog'iston tajribasidagi ilmiy-empirik tekshirish usulini qo'llash va Turkmanistondagi ko'p qatlamli institusional tizimdan (maktab – oliy ta'lim – maxsus markazlar – OAV) o'rnak olish maqsadga muvofiqdir. Shu tariqa xorijiy va "ichki-qiyosiy" tajriba "Go'ro'g'li" turkumi asosidagi tajriba-sinov metodikasini ishlab chiqishda tayanch qiyosiy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Epic art of Gorogly. – UNESCO Intangible Cultural Heritage, 2015 (№01028). – Elektron manba: <https://ich.unesco.org/en/RL/epic-art-of-gorogly-01028> (murojaat sanasi: 16.08.2026).
2. Heritage of Dede Qorqud/Korkyt Ata/Dede Korkut, epic culture, folk tales and music. – UNESCO Intangible Cultural Heritage, 2018 (№01399). – Elektron manba: <https://ich.unesco.org/en/RL/heritage-of-dede-qorqud-korkyt-ata-dede-korkut-epic-culture-folk-tales-and-music-01399> (murojaat sanasi: 16.08.2026).
3. Muhammedov G. Epic Traditions in Turkmenistan: The Turkmen Epic Art of 'Gorogly'. – UNESCO ICHCAP arxivi. – Elektron manba: https://archive.unesco-ichcap.org/eng/ek/sub8/pdf_file/08/07_EPIC%20TRADITIONS%20IN%20TURKMENISTAN-%20THE%20TURKMEN%20EPIC%20ART%20OF%20%E2%80%98GOROGLY.pdf (murojaat sanasi: 16.08.2026).
4. Jumakadyrova K.M. “Manas” eposunun bygynty kyndogy maanisi, taryxy ordu. – Elektron manba: <https://arch.kyrlibnet.kg/uploads/KGUSTA.JUMAKADYROVA%20K.M..pdf> (murojaat sanasi: 16.08.2026).
5. Alybayeva G. “Manas” baldar dyynosynde. – Kut Bilim ta'lim portalı. – Elektron manba: <https://kutbilim.kg/analytics/inner/manas-baldar-d-yn-s-nd/> (murojaat sanasi: 16.08.2026).
6. Chyy oblusunun mektepterinde “Manas”, “Semetey”, “Seytek” jana “Aychyrok” uyumdarı ishtey bashtayt. – Elektron manba: <https://eltr.kg/ch%D2%AFj-oblusunun-mektepterinde-manas-semetey-sejtek-zhana-ajch%D2%AFr%D3%A9k-uyumdary-ishtey-bashtajt/> (murojaat sanasi: 16.08.2026).
7. Toibazar A., Dautova G., Aliyev Y., Turdali T., Zhalgasbayeva K. Ethnic Narratives in Education: The Role of Kazakh Epics in Preserving Cultural Heritage and Identity // Journal of Ethnic and Cultural Studies. – 2025. – Vol. 12, № 1. – P.

154–177. – Elektron manba: <https://doi.org/10.29333/ejecs/2414> (murojaat sanasi: 16.08.2026).

8. Sorok devushyek (epicheskaya poema). – Ziyouz.uz elektron kutubxonasi, “Qoraqalpoq xalq poeziyasi” bo‘limi. – Elektron manba: <https://www.ziyouz.uz/ru/folklor/karakalpaks kaya-narodnaya-poeziya/1076-2012-11-29-09-47-20> (murojaat sanasi: 16.08.2026).

9. Kurbaniyazov M., Saparova L. Educational and Upbringing Ideas in Karakalpak Folk Epics // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2026. – Vol. 6, № 4. – P. 602–604. – Elektron manba: <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/7293> (murojaat sanasi: 16.08.2026).